

## INVESTITSIYALARNI JALB ETISH, ULARNING TASHABBUSINI VA MONITORINGINI TASHKIL ETISH USLUBIYATI

*Andijon Qishloq Xo`jaligi va Agrotexnologiyalar instituti  
Buxgalteriya hisobi va audit yo`nalishi 1-boshqich talabasi*

**To`xtasinov O`tkirbek O`lmasbek o`g`li**

*Gmail pochta: [toxtasinovotkirkbek4@gmail.com](mailto:toxtasinovotkirkbek4@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Investitsiyalar haqida tushunchalar, investitsiyaviy loyihalar monitoringini tashkil etish haqida, agrar sohani rivojlantirish, qishloq xo`jaligida investitsiyaviy loyihalarning tashabbuskorligini oshirish va tashkil etish haqida.

**Kalit so`zlar.** Investitsiyaviy loyihalar, investitsiya, moliyalashtirish, investitsiyaviy loyilar monitoringi, investitsiyaviy loyihalar tashabbusi, moliyaviy investitsiya, investitsiya turlari.

**Investitsiya** (lotincha *investio* — „o`rash“) — asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko`paytirishga, ishlab chiqarish sohalarini kengaytirishga qilingan sarf xarajatlarning pul shaklidagi ko`rinishidir. Investitsiya kelajakda foyda olish maqsadida mablag`lar qo`yishdir. Investitsiya kapitalni muayyan muddatga bog`lashni yoki band qilishni bildiradi. Bundan asosiy maqsad kapital qiymatini saqlab qolish yoki bo`lmasa kapital qiymatini vaqtda o`sirib borishdir. Iqtisodiy mazmuni jihatdan investitsiya turli faoliyatlarga safarbar etilgan moddiy, nomoddiy boyliklar va ularga bo`lgan huquqlarni aks ettiradi. Investitsiya sifatida pul, qimmatli qog`ozlar (aksiya, obligatsiya, sertifikat, veksel), yer, bino, inshoot kabi boyliklar, intellektual mulk bo`lgan ilmiy kashfiyotlar, ixtiolar va boshqalarda ishlatiladi. Investitsiyalarni ro`yobga chiqarish bo`yicha amaliy harakatlar — investitsion faoliyat, investitsiyalarni amalga oshiruvchi va investitsiya loyihalariga mablag` qo`yuvchilar — investorlar deyiladi. Investorlar: davlat, kompaniya, korxona, chet ellik fuqarolar, aholi va boshqalar bo`lishi mumkin. Investitsiyaning quyidagi turlari mavjud: *davlat investitsiyasi* — davlat byudjeti va

moliya manbalari hisobidan kiritiladi; *chet el investitsiyasi* — xorijiy davlatlar, banklar, kompaniyalar, tadbirkorlar tomonidan kiritiladi; *xususiy investitsiya* — xususiy, korporativ xo‘jalik va tashkilotlar, fuqarolar mablag‘lari, shu jumladan, shaxsiy va jalg qilingan mablag‘lar hisobidan qo‘yiladi. Investitsiya qo‘yilish shakliga qarab moliyaviy (portfel) va real (ishlab chiqarish) investitsiyaga bo‘linadi. Moliyaviy investitsiya — aksiya, obligatsiya, qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga qo‘yiladigan investitsiya, real investitsiya — moddiy ishlab chiqarish (sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish va boshqalar) sohasiga, moddiy-ashyoviy faoliyat turlariga uzoq, muddatli mablag‘lar qo‘yish shakllarida amalga oshiriladi. Jahon tajribasida investitsiyani moliyalashtirish turli usul va shakllarda, shu jumladan, korxonalarni aksiyadorlashtirish va aksiyalarni joylashtirish, byudjet mablag‘lari, bank kreditlari, lizing, bevosita chet el investitsiyalari, ipoteka, byudjetdan tashqari maxsus fondlar, amortizatsiya va xo‘jalik yuritish sub’yektlarining boshqa mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi.

### ***Investitsiyaviy loyihalar monitoringini tashkil etish***

Investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish samaradorligi monitoringini o‘tkazishning maqsadi investitsiyalash jarayonining barcha darajalarini ularning kengaytirilgan vazifalari asosida doimiy kuzatish hisoblanadi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Investitsiyaviy jarayonning barcha ishtirokchilari tomonidan agrar soha sub'ektlarining loyihaviy takliflarini amalga oshishini va investitsiyaviy davrning barcha bosqichlarida o‘tish muddatlariga amal qilinishini kuzatish; Investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirishni shu jumladan, investitsiyaviy davrning barcha bosqichlarida jalg qilinayotgan kredit liniyalari samaradorligini ta‘minlashga ko‘maklashish. Agrar sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan mablag‘larning yuqori samarasini ta‘minlash va biznes sub'ektlari tomonidan investitsiyaviy loyihalar bo‘yicha majburiyatlarni bajarish monitoringining asosiy maqsadi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligidagi o‘tkazilgan yig‘ilishda milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlashning 8 ta asosiy yo‘nalishlari belgilandi. Alovida e’tibor investitsiya masalalariga va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmining ko‘payishiga qaratildi. Investitsion loyihalarning samaradorligini oshirishdagi yangiliklardan biri investitsion loyihalarni

monitoring qilishning 3 bosqichli yangi tizimni joriy etish bo‘lib, unga sanoatni va umuman iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi va ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirni oldindan baholash kiradi. Shuningdek, investitsiya davrida, ya’ni shartnomalar imzolangan paytdan boshlab ob’yektni foydalanishga topshirishgacha doimiy monitoring o‘tkazilib, ob’yektni foydalanishga topshirilgandan keyin maqsadli parametrlarni baholash uchun investitsiyadan keyingi davrda monitoring olib boriladi.

### **Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar**

Hududlar	2000	2005	2010	2015	2020	2023	Mlrd.so‘mda 13 yillik o‘sish surati
Qoraqalpog’iston Respublikasi	35,9	149,3	496,4	6021,2	7089,8	10254,0	<b>10218,1</b>
Andijon	36,7	130,4	726,2	1956,5	9622,6	14339,8	<b>14303,1</b>
Buxoro	31,2	260,7	2147,2	4075,9	12183,9	21638,3	<b>21607,1</b>
Jizzax	17,4	77,2	440,8	1304,9	12545,4	10373,9	<b>10356,5</b>
Qashqadaryo	124,3	456,5	1792,8	5894,7	20557,6	16012,8	<b>15888,5</b>
Navoiy	46,1	229,1	1741,8	1809,1	15688,4	17958,1	<b>17912</b>
Namangan	41,9	107,9	660,6	2227,5	12007,2	14775,1	<b>14733,2</b>
Samarqand	42,6	203,5	1083,1	3237,2	14656,4	18917,1	<b>18874,5</b>
Surxondaryo	27,7	170,8	655,3	1843,6	10068,2	11569,4	<b>11541,7</b>
Sirdaryo	17,1	54,5	406,2	1083,3	7191,9	12354,6	<b>12337,5</b>
Toshkent	60,5	337,4	1606,1	4428,1	21148,6	35767,7	<b>35707,2</b>
Farg’ona	52,4	162,3	930,9	2542,3	11040,0	15419,3	<b>15366,9</b>
Xorazm	25,8	63,3	416,9	1531,5	5391,8	8769,7	<b>8743,9</b>
Toshkent sh.	182,7	741,8	3309,0	6854,6	50371,3	56847,9	<b>56665,2</b>
<b>O’zbekiston Respublikasi</b>	<b>744,5</b>	<b>3165,2</b>	<b>16463,7</b>	<b>44810,4</b>	<b>210195,1</b>	<b>266240,0</b>	<b>265496</b>

<sup>1</sup> Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning hududlar va O’zbekiston Respublikasi bo‘yicha, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi hisobotining aniq ko‘rsatkichiga qaraydigan bo‘lsak, bu natija yuqorida ko‘rsatilganidek anchagina samarali suratda o‘sdi. Jadvalda ko‘rib turganimizdek, hududlarga nisbatan oladigan bo‘lsak, Toshkent shahrida eng yuqori

<sup>1</sup> O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi

ko'rsatkich, ya'ni 56665,2 (ellik olti ming olti yuz oltimish besh butun o'ndan ikki mlrd.so'mni tashkil qildi.

### ***Investitsiyaviy loyihalar tashabbusini tashkil etish***

Investitsiyaviy loyihalar tashabbusini tashkil etishda bozor infratuzilmalari tashkilotlari quyidagi ketma-ketlikda faoliyatni amalga oshirishi maqsadga muvofiqligi ayon bo'ladi: (2-rasm)

Hududning sotsial-iqtisodiy rivojlanish darajasini tahlil etish va uning istiqbolli ko'rsatkichlarini aniqlab olish;

Qishloq tadbirkorlarining xohish-istikclarini va ularning imkoniyatlarini o'rganish;

Axborot-maslahat Markazlari orqali investitsiyalar jalb qilinadigan sohalarni belgilab olish, ichki va tashqi bozor konyukturasini o'rganish, marketing izlanishlarini o'tkazish;

Qishloq tadbirkorlarining imkoniyatlariga (120 foiz kafolat jamg'armasi, inshoot va kommunikatsiyalarning mavjudligi, hisob raqamida pul mablag'larining bor-yo'qligi, loyihada uning eng kamida 25 foiz ishtiroki) va xohish istaklari asosida investitsiyaviy loyiha sub'ektini aniqlash;

Tadbirkorlarning imkoniyatlariga (kafolat jamg'armasi, inshoot va kommunikatsiyalarning mavjudligi, hisob raqamida pul mablag'larining bor-yo'qligi) va xohish-istiklari asosida investisiyaviy loyiha sub'ektini aniqlash

↓

Axborot – maslahat Markazlari yoki boshqa injiniring kompaniyalari ko'magida tadbirkorga uskuna tanlashda, texnik iqtisodiy asoslashni va biznes-rejani ishlab chiqishda amaliy yordam ko'rsatish

↓

Xizmat ko'rsatadigan bankni va kredit liniyasini tanlash, bankka loyihani taqdim etish

↓


Bank kredit qo'mitasining ekspertizasidan o'tganga qadar Axborot-maslahat Markazlari yoki injiniring kompaniyasi bilan birgalikda loyihani kuzatish

↓

Moliyalashtirish to'g'risida bankning ijobiliy qaroridan so'ng uskunalarni o'rnatish, ishlab chiqarishni amalga oshirish va olingan kredit mablag'larini maqsadli ishlatishning doimiy monitoringini amalga oshirib borish

## 2-rasm. Investitsiyaviy loyihamo tashkilot etish mexanizmi

O‘zbekiston savdo-sanoat Palatasining, DFX uyushmasining axborot-maslahat Markazlari, banklar yoki boshqa injiniring kompaniyalar ko‘magida qishloq tadbirkorlariga uskuna tanlashda, texnik-iqtisodiy asoslashni va biznes-rejani ishlab chiqishda yordamlashish; Bank kredit qo‘mitasining ekspertizasidan o‘tganga qadar Axborot-maslahat markazlari yoki injiniring kompaniyasi bilan birgalikda loyihamo kuzatish; Moliyalashtirish to‘g‘risida bankning ijobiy qaroridan so‘ng uskunalarni o‘rnatish, ishlab chiqarishni amalga oshirish va olingan kredit mablag‘larini maqsadli ishlatishning doimiy monitoringini amalga oshirish.



## 3-Rasm. o‘zbekiston Respublikasiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun jalb etilayotgan xorijiy sarmoyalar monitoringi mexanizmi

Yuqoridagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarning ahamiyatiga qarab, ayrim investitsiya loyihamonini tasdiqlash to‘g‘risida qaror qabul qilinadi. Qoida tariqasida, iqtisodiy rentabellik koeffitsiyenti ijtimoiy chegirma stavkasidan past yoki salbiy sof qiymati

bo‘lgan loyihalar rad etilishi kerak, chunki bunday loyihalar kam foyda evaziga juda ko‘p ijtimoiy resurslarni iste’mol qiladi. Bulardan xulosa qilishimiz mumkinki, agrar sohaga kiritilayotgan investitsiyalarning juda ko‘plari sohaning rivojlanishiga va keskin suratda o‘sishiga asosiy omil vazifasini bajarmoqda.

***Foydalilanilgan adabiyotlar.***

1. Wikipedia. [\*\*lib.jdpu.uz\*\*](http://lib.jdpu.uz) sayti
2. Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi darslik kitobi
3. Yandex [\*\*articles.opexflow.com\*\*](https://yandex.ru/) sayti
4. Google web. [\*\*www.google.com\*\*](http://www.google.com) sayti
5. Yandex [\*\*articles.opexflow.com\*\*](https://review.uz) sayti
6. Google web. [\*\*https://review.uz\*\*](https://review.uz) sayti